

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7838882>

**Uzaqova Ominaxon Akramovna.**

*Oltiariq tumani 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlarini kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari, bu borada muhit va jamiyat hamkorligi, mehnat texnologiyasi va psixologiyasi, mehnat sharoitining ustoz-shogirdlik, murabbiylik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi singari muhim omillar bilan bog'liq bo'lgan holatlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Yoshlar, mutaxassis, raqobat, iqtisodiyot, kasb, hunar, malaka.*

**Abstract:** *This article focuses on the psychological basis of the work of directing young people to the profession, the circumstances that are associated with such important factors as the environment and community cooperation, Labor technology and psychology, masterfulness of working conditions, the right path of coaching work.*

**Keywords:** *youth, specialist, competition, economy, profession, craft, qualification.*

## KIRISH

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalardan biri o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishdir. Bu sohada ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish juda ham muhim hisoblanadi. Respublikamiz mustaqilligidan keyingi yillar davomida bu sohaga jiddiy e'tibor berila boshlandi, ta'lim sohasi rivoji uchun yetuk mutaxassislar, olimlar jalb etildi, ular tomonidan ilmiy-amaliy qo'llanmalar, darsliklar, metodik tavsiyanomalar

yoziqib, o'quvchiyoshlarni kasbga yo'llash ishlari bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

#### ASOSIY QISM

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmogda.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etganlan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlariga ilmiy jihatdan qaraganda dastlabki bosqich bo'lib, bu muhit va jamiyat bilan hamkorligida uzoq vaqt davom etadigan murakkab psixologik jarayondir. Boshqacha aytganda, nafaqat umumiy va maxsus qobiliyatlar, shaxs xususiyatlari, balki, shu bilan birga, shaxsga moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta'sir etuvchi tashqi muhit ham kasb tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu jarayonlarda har bir o'smirda bo'lajak kasbga ongli va to'g'ri, muayyan sohaga nisbatan ozmi-ko'pmi ijtimoiy, ijobiy munosabatlar shakllanadi. Shu sababli o'quvchining kasb tanlashga tayyorligi deganda, kasbni to'g'ri tanlashga imkon beradigan kasbiy ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan, qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradigan shaxs rivojlanishining muayyan bosqichi yoki holati tushuniladi. Bu esa kasbga yo'naltirish faoliyatining maqsadi asosan o'quvchi yoshlarning bo'lajak kasbini ongli va mustaqil ravishda to'g'ri tanlashlariga qaratilgan bo'lishi kerak, degan fikrga kelishga asos bo'ladi. O'tkazilgan pedagogik-psixologik kuzatishlar, tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchisi birinchi galda sinf jamosining a'zosi sifatida, pedagogik ta'sirning sifatida namoyon bo'ladi. Turli psixologik omillar bu jarayonga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muayyan kasbni tanlashi lozim bo'lgan o'quvchi shaxsining shakllanishi bu kasbga nisbatan munosabatining qanchalik ongli darajada ekanligi, o'quvchi faoliyatining o'quv va ishlab chiqarish jarayonidagi birligi, ma'lum ishlab chiqarish borasida mehnat sharoitining ustoz-shogirdlik, murabbiylik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi singari muhim omillarga bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, kasbga yo'naltirish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

1. O'quvchi mehnatning ijtimoiy qimmatini yaxshi tushunishga;

2. Mehnat sharoitlari hozirgi zamon talablariga to'la javob bera olishiga;
3. O'quvchilar o'z qurlari yetgan mehnatni jamiyatga foydasi tegadigan darajada bajara olishlariga;
4. Oilalarda va murabbiylik harakatlarida o'quvchilarda muayyan kasbga nisbatan to'g'ri ijodiy intilish hosil qilinishiga.

Ta'lim tarbiya jarayonini shunday tashkil etish, bizning nazarimizda, o'quvchilarda ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda yuksak mas'uliyatni his qilish, qat'iyat ko'rsatish va pirovard natijaga erishish, o'z-o'ziga talabchanlik, o'z kasbiga ijodiy yondashish kabi zarur fazilatlarini tarkib topdiradi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kasbga qiziqishlari samarali bo'lishi uchun bir qator jarayonlarni bosqichma-bosqich to'g'ri amalga oshirish talab etiladi:

1. O'quvchilarda kasbga qiziqishni bosqichma-bosqich o'stirib borish.
2. Ularni bosqichma-bosqich kasb haqidagi bilimlarga ega qilish.
3. Aniq tasavvur etuvchi kasbiy faoliyati haqida o'smirlarda dastlabki kasb ko'nikmasini hosil qilish, bu ko'nikmaning o'smir psixologik rivojlanishiga mos bo'lishini ta'minlash.

Kasbni ongli ravishda tanlashning mohiyati haqida akademik G.S.Kostyuk quyidagilarni qayd etadi:

- jamiyat manfaatlari yo'lida mehnatga ijobiy munosabat, mehnatsevarlik, mehnat har bir insonning burchi ekanligini to'g'ri anglash;
- muayyan kasb-hunarlar haqidagi bilimlarga ega bo'lish;
- o'z-o'ziga to'g'ri baho bera olish.

Tarbiya jarayonida o'quvchining qobiliyatlari, bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari, u yoki bu kasb haqida muayyan ma'lumotga ega bo'lish, bolalar psixologiyasini hisobga olish talab etiladi. O'qituvchi o'quvchilarning turli o'quv predmetlarini, mehnat darslarida, mehnat faoliyatining xilma-xil turlarini egallash malakalarini shakllantirar ekan, maktab yoshlarini ijodiy mehnat qilishga tayyorlash uchun da'vat etganligini e'tiborga olish kerak. O'quvchining mehnatga munosabati tarzini belgilaganda ikkita asosiy shartdan kelib chiqish kerak:

- o'quvchida mehnat faoliyatining u yoki bu turiga nisbatan individual qobiliyatlar mavjudligini hisobga olishni;
- ishtiyoq bilan, ijodiy mehnat qila olish ko'nikmasi mavjudligiga ahamiyat qaratishni.

Agar o'quvchi topshiriqni osongina emas, ayni paytda ishtiyoq bilan, iloji boricha yaxshiroq natijalarga erishish istagi bilan bajargan taqdirdagina faoliyatining muayyan turiga barqaror munosabat haqida gapirish mumkin. Demak, o'quvchining mehnatga munosabatini faqat muntazam kuzatishlar negizidagina belgilash mumkin. Kuzatish jaryonida o'qituvchi quyidagi shaxs fazilatlariga e'tibor berishi kerak: intizomlilik; mehnatsevarlik; tejamkorlik; jamoatchilik; mehnat natijalriga o'zi baho berishi. Kuzatish va tajribaning ko'rsatishicha, o'quvchilarning mehnat ta'limiga qiziqishi

ko'proq ular maktab ustaxonalarida birinchi marta bo'lganliklarida vujudga kelgan tasavvurlar bilan belgilanadi. Shuning uchun ustaxona o'quvchilarda yoqimli taassurot qoldirishi zarur. U ozoda, yorug', yetarlicha issiq va shamollatiladigan bo'lishi kerak. Ustaxonadagi butun vaziyat mehnatga jalb etilishi, unda qattiy tartib sezilib turishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori 12-bandiga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9 — 11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish tartibi joriy qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 10-sinflarda, 2023/2024 o'quv yilidan — 11-sinflarda tashkil etiladi;

kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalariga birlashtirilgan yaqin hududda joylashgan kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari va qisqa muddatli kurslar ochilgan ta'lim muassasalarining o'quv binolari, shu jumladan, sinf xonalari va ustaxonalaridan bepul foydalaniladi;

kasb-hunarga tayyorlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning ta'lim muassasasi uchun ajratilgan mablag'lari, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari mablag'lari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

a) umumta'lim muassasalari psixologi tomonidan o'quvchilarning kasbga moyilligini o'rganish va ularni kasbga yo'naltirishda quyidagilarni amalga oshirish:

7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazib, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlanish va ularning ma'lumotlar bazasini yaratish;

8-sinfda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish, tanlagan kasbi bo'yicha kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasb o'rganish uchun o'quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo'naltirish;

9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi yoki kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasbga tayyorgarlikni davom ettirishlari uchun o'quvchilarni o'quv yili davomida muayyan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

b) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilish:

kasb-hunarga tayyorlash markazlarida o'qish o'quvchilar uchun joriy o'quv yilining 2-sentabridan kelgusi yilning 25-mayigacha bo'lgan davrda to'rt chorakka bo'lingan holda tashkil etiladi;

- o'quv yilining davomiyligi — 34 hafta;

- haftasiga kamida bir marta belgilangan soatlar doirasidan chiqmagan holda o'qish tashkil etiladi;

- haftalik va umumiy o'quv yuklamasi kasb turiga qarab belgilanadi;

- mashg'ulotning davomiyligi — 45 daqiqa;

- mashg'ulotlar oralig'idagi tanaffusning davomiyligi — 5 — 10 daqiqa.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari o'z hududidagi kasb-hunarga tayyorlash jarayonida o'rgatiladigan kasblarni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga muvofiqlashtirsin hamda 2022-yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur ish o'rinlarini yaratish, ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rsin.

5. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 24-oktabrdagi 868-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri B.O. Saidov hamda O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri N.B. Xusanov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari kotibiyatiga yuklansin.

#### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko'rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi.. O'quvchilarda o'zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo'llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi

darslari va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to'garak faoliyatida amalga oshirish mumkin. To'garaklarda o'quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari kattadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
2. Boltaboev S.A. Tolipov O'.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
3. Davletov K.D. va b. O'quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. -T.: O'qituvchi, 1984. 167 b.
4. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., SHaripov SH.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: FAN. 2004. 120 b.
5. Klimov S. A. va b. —Ishlab chiqarish asoslaril. Kasb tanlash 2 - qism. -M. 1987.
6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.